



**“MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMUY-MA’RIFIY MEROSINI
O‘RGANISHGA BAG‘ISHLANGAN ILMUY MAQOLA”SI**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zDJTU)ning 1-kurs talabasi

Mehribonu Xudoyberdiyevaning

Annotatsiya: Mazkur maqola Mirzo Ulug‘bekning millat g‘ururi va ilm-fan sohasidagi ahamiyatini o‘rganadi. O‘bekistonning ulkan tarixiy shaxslaridan biri sifatida Ulug‘bek, nafaqat buyuk astronom va matematik, balki o‘z davrida madaniyat va ilmni rivojlantirishga katta hissa qo‘shtigan arbobdir. Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmuy-ma’rifiy merosini o‘rganish, uning shaxsiyati va ilm-fanga qo‘shtigan hissasini chuqur tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. U O‘zbekiston tarixidagi eng buyuk shaxslaridan biri bo‘lib, astronomiya va matematikada kashfiyotlari bilan tanilgan. Samarqandda qurilgan obidalar va ilmiy tadqiqotlar uning madaniyati va ilm-fan sohasidagi yuksak g‘oyalari bilan bog‘liq. Movvorounnahrni 30 yildan ortiq boshqargan Temuriylar sulolasining davomchisi umrining so‘ngini sulola vakillarining qo‘zg‘alonlari, fitna-fasodlari va xiyonatlari bois ro‘shnolikdan nari kechirishga majbur bo‘ldi, qondoshlari tomonidan harbiy qo‘zg‘olonlar uyushtirilishiga qaramasdan, alloma o‘zidan ulkan madaniy meros qoldira oldi. Mirzo Ulug‘bekning ishlaridagi innovatsion yondashuvlar va bilimlarni rivojlantirishga bo‘lgan intilishi, zamonaviy avlodga ilhom manbai sifatida xizmat qiladi. Uning merosi nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun insoniyatga ta’sir ko‘rsatadi. Ulug‘bek hayoti va faoliyatini o‘rganish, uning ilmiy yutuqlarini va ma’rifatparvarlik g‘oyalari qayta tiklashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Sulton, Ulug‘bek, Samarqand, astronom, matematik, tarixchi, geograf, rasadxona.

Prezident bir nutqida shunday deydi: “Mirzo Ulug‘bek nafaqat o‘z davrining yirik olimi, balki ma’rifatni eng yuqori qadriyat darajasiga ko‘targan buyuk davlat arbobi edi. U ilm-fan, ayniqsa, astronomiya va matematika sohalarida mislsiz



kashfiyotlar qilgan va butun dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan." Shavkat Mirziyoyev Mirzo Ulug'bekni nafaqat buyuk astronom va matematik olim, balki chinakam ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida e'tirof etadi.

Mirzo Ulug'bek, to'liq ismi Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn Temur, 1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida tug'ilgan. Uning tug'ilishi davri Buyuk Sohibqiron Hazrat Amir Temur davriga to'g'ri keladi, bu paytda Amir Temur "Morden" qal'asini egallashga qaratilgan harbiy yurishni olib borayotgan edi. Shuningdek, ayni shu sanada Amir Temurning boshqa o'g'li Umar Shayx Mirzo "Harmatun" qal'asida halok bo'ldi, bu voqeа Amir Temurning harbiy faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Temuriylar sulolasining tarixi va Ulug'bekning roli tahlil qilingan I.A.Xamraev ninng "Temuriylar davri va Mirzo Ulug'bek" kitobida yozilganidek, yosh shahzoda tug'ilganda, Amir Temur va uning oilasi uchun bu hodisa katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki o'zining bobosi va boshqa oila a'zolarining harbiy muvaffaqiyatlari davomida bir yangi avlodning dunyoga kelishi umid va quvonch manbai bo'ldi. Amir Temur, janglar olib borganida, qadrli nabirasining tug'ilishi bilan behad shodlandi va bu voqeа uning yurishlarida yangi bir ruhni olib keldi.

Shohrux Mirzoning farzandi bo'lgan Mirzo Ulug'bek, Amir Temur tomonidan katta umidlar bilan kutib olindi. Amir Temur, o'zining yillar davomida tiz cho'ktirishga harakat qilgan "Morden" qal'asini tug'ilgan nabirasining sharafiga ozod qilishga qaror qilganiga tarix guvoh bo'ldi, bu esa Ulug'bekning qudrati va oilasining obro'sini yanada oshirdi. Buning natijasida Ulug'bekning hayoti va faoliyati, Amir Temur merosining davomchisi sifatida, ilm-fan va madaniyat sohasida muhim ro'l o'yndi.

Ismning "Muhammad" qismi diniy meros va musulmon an'analariga ishora qiladi, "Tarag'ay" esa uni oila tarixida muhim o'rin tutgan shaxs sifatida belgilaydi. Uning "Ulug'bek" ismini qanday olgani esa, uning kelib chiqishi, oilaviy an'analarini va zamonining kuchli shaxsiyati bilan bog'liqdir "Ulug'bek" nomi, Amir Temur tomonidan Ulug'bekka berilgan unvon sifatida qabul qilinadi. Bu nom, mo'g'ul tilidan "kuyov" yoki "ulug'" ma'nosini anglatadi. Amir Temur, o'z nabirasining



tug‘ilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan harbiy muvaffaqiyatlari va shon-shuhratini inobatga olib, unga bunday unvon berishga qaror qilgan. Mirzo Ulug‘bek avvaliga Muhammad Tarag‘ay ismini oldi, lekin Amir Temur tomonidan berilgan “Ulug‘bek” unvoni uni tarixda buyuk shaxs sifatida tanitdi. Bu ism uning ilmiy merosini, shuningdek, o‘z davrida olib borgan faoliyatining ahamiyatini belgilab berdi. I.A.Xamraev o‘zining kitobida Mirzo Ulug‘bekni turli nomlar bilan ataydi. U ko‘pincha Ulug‘bekni “buyuk astronom”, “ilmu-fan ravnaqi” yoki “madaniyat arbobi” sifatida ta’riflaydi. Shuningdek, “Temuriylar sulolasining merosxo‘ri” sifatida ham eslatadi, chunki u Amir Temurning nabirasi sifatida o‘z tarixiy roli va ilmiy yutuqlari bilan katta e’tiborni o‘ziga tortadi.

Mirzo Ulug‘bek ilm-fanga qiziqishni juda erta boshlagan. U 10 yoshidan boshlab, o‘zining ilmiy izlanishlariga qiziqish bildirgan. Bu davrda, bobosi Amir Temur va otasi Shohrux Mirzo ta’sirida tarbiya olgan. Ulug‘bek o‘sha paytlarda yirik olimlar va mutafakkirlar bilan aloqada bo‘lib, astronomiya, matematika va falsafa kabi sohalarga qiziqish bilan yondashdi. Bunga bevosita bobosining hissasi kata deb ta’kidlash mumkun. Sababi, Mirzoning yosh chog‘idan ilm olishiga e’tabor qaratdi

Dastlab, Mirzo Ulug‘bek, o‘z davrining buyuk astronomi va davlat arbobi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, shaxsiy hayoti ham juda muhim voqealar bilan to‘la. Uylanishi va toyi, nafaqat uning shaxsiy hayotida, balki Temuriylar sulolasining siyosiy hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ulug‘bek 1404-yilda Muhammad Sultonning qizi Og‘abegim bilan Konigilda nikohlandi. Ulug‘bekning uylanishi, avvalo, siyosiy maqsadlarga xizmat qildi. Uylanish orqali Temuriylar sulolasining o‘zaro aloqalarini mustahkamlash, ittifoq va hamkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan. Muhammad Sulton, Amir Temurning o‘g‘li sifatida, o‘z qizi orqali Ulug‘bek bilan yaqin aloqalarni o‘rnatishga harakat qildi. Bu nikoh, ikki kuchli oilaning o‘zaro aloqalarini kuchaytirish va davlat barqarorligini ta’minlash uchun muhim qadam bo‘ldi. Ulug‘bek va Og‘abegimning toyi, o‘z zamonida katta tantana bilan o‘tkazildi. Bu marosim, faqat ikki oila uchun emas, balki butun mintaqa uchun muhim voqealarni bo‘ldi. Toy marosimi davomida ulug‘vor an‘analar va urf-odatlar namoyon bo‘ldi, xalqning bayramona kayfiyati, raqs va musiqalar bilan to‘ldi.



Mirzoning bu davrda 10yoshda bo‘lishiga qaramasdan Ulug‘bek o‘zining yagona maqsadi—oиласини кучли ва баргарор qilish, shuningdek, xalq orasida obro‘sini oshirishni ko‘zlagan edi.

Tarixga murojaat qilsak, Amir Temur 1404-yilning tahminan 27-noyabrida Xitoyga yurishga otlandi. Bu yurish, uning harbiy strategiyasining bir qismi bo‘lib, Xitoyning shimoliy hududlariga qaratilgan edi. Temur, o‘zining kuchini yanada mustahkamlash va yangi hududlarni egallash maqsadini amalgaga oshirish uchun yo‘lga otlanadi. Yurish davomida u o‘z qo‘shini bilan bir nechta yirik janglar olib bordi, ammo yurishning asosiy maqsadi Xitoyni to‘liq egallashdan ko‘ra, o‘z ta’sirini kengaytirish va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish edi. Jangga otlanishidan oldin Buyuk Temur nabiralariga ma`lum bir hududlarni bo`lib berdi. Xususan , tarixiy manbalarda yoritilishicha Otroq, Sayram, Yassi, Jambuta, Samarqand va Buxoro hududlari mirzo Ulug‘bek ixtiyoriga topshirildi. Amir Temurning o‘z merosxo‘ri sifatida Ulug‘bekka Buxoro va Samarqandni bergani haqida ma’lumotlar Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida mavjud bo‘lib . Asar Temurning harbiy strategiyalari va sulolaning boshqaruvini tasvirlaydi.

Ulug‘bek o‘zining yoshligida va o‘smirlik davrida harbiy yurishlarga qatnashgan. U otasi Shohruxning qo‘shinlarida xizmat qilgan va ba‘zi harbiy kampaniyalarda qatnashgan To‘g‘ri, Shohrux Mirzo vafotigacha bo‘lgan davri Mavarounnahrning eng tinch davrlaridan biri sifatida eslash mumkin. Ushbu tinchlik sharoitida Mirzo Ulug‘bek ilm-fan bilan chuqr shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu davrda, uning bilim va tadqiqotlar uchun imkoniyatlari kengaydi, natijada u o‘zining astronomik kuzatishlari va ilmiy asarlari bilan mashhur bo‘lib, madaniyat va ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Ulug‘bekning bu faoliyati Mavarounnahrni ilm-fan markaziga aylantirdi va uning merosi butun insoniyat uchun ahamiyatga ega bo‘ldi.O‘z hukmronligi davomida mamlakatni muvaffaqiyatli boshqardi. Ulug‘bek davlat boshqaruvida ilm-fanga e’tibor qaratdi. U Samarqandda o‘zining mashhur observatoriyasini tashkil etib, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirdi. Buning natijasida, Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Ulug‘bek ko‘plab olimlarni, san’atkorlarni va shoirlarni o‘ziga jalb qildi va ularning ijodiga



homiylik qildi. Boshqaruvida adolat va tartibni ta'minlashga harakat qildi, bu esa uning xalq orasida obro'sini oshirdi.

Shuni ham ko'zdan qochirmaslik kerakki, Mirzo Ulug'bek, o'z davrining buyuk mutafakkiri va hukmdori sifatida tarixda muhim o'rinni tutadi. U ilm-fanga qiziqishni juda erta, 10 yoshidan boshlab boshlagan. Bu davrda Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va Umar Hayyom kabi buyuk olimlarning asarlarini o'rganib, ularning bilimlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu mutafakkirlar orqali u yunon olimlari Aflatun, Arastu, Gippakrat va Ptolomey bilan tanishib, ularning ilmiy merosini o'z zamонига tadbiq etishga harakat qildi. Bu jarayon, Ulug'bekning ilmiy qarashlarini yanada kengaytirib, yangi kashfiyotlar qilishga kirishdi. "Tazkirat-ush shuaro" asarida Davlatshoh Samarqandiy shunday yozadi: "Olim, odil, g'olib va himmatli podshoh Ulug'bek Ko'ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. "O'rta Osiyo xalqlari ilm-fanini va madaniyatini dunyo ilmining eng yuqori pog'onasiga olib chiqishda Mirzo Ulug'bek muhim ro'l o'ynadi. Uning eng buyuk asari Samarqandda ilmiy mакtab, o'sha davr akademiyasi barpo etganligi bo'ldi. 200 dan ortiq olim, ularning orasida Qozizoda Rumiy va G'iyosiddin Jamshid Koshiy kabi yirik mutafakkirlar, bu ilmiy maktabda faoliyat olib bordi. Bunga qo'shimcha sifatida Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand o'zining gullab-yashnashiga erishdi. Uning farmoyishi bilan 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar qurildi. Marv shahrida ham xayriya muassasalari tashkil etildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi va Shohi Zinda ansambl kabi muhim qurilishlar nihoyasiga yetkazildi. Bundan tashqari, Ulug'bek karvonsaroylar, timlar, chorsular va hammomlar kabi ko'plab jamoat binolarini ham barpo ettirdi. Bu tadbirlar, uning madaniyat va ta'limga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Samarqand yaqinidagi Ko'xak (Cho'ponota) tepaligida Ulug'bek rasadxona barpo etdi. 1424-1429-yillarda qurilgan bu rasadxona, "Boburnoma" da keltirilishicha, balandligi 30,4 metr bo'lgan va 3qavatli qilib qurilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati, mashhur olimlar G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlar bilan birga, Ulug'bek taklifi bilan yig'ilgan, osmon ilmida yangi



cho‘qqilarga erishdi. Ulug‘bekning ilmiy merosi zamonaviy astronomiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari , Boburning yozishicha, rasadxonasing sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Bu rasadxonada o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida katta aniqlik bilan Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar o‘rganilgan. Shuningdek, rasadxona ichida fanning deyarli barcha sohalariga tegishli qariyb o‘n besh ming jild kitob saqllovchi kutubxona ham bo‘lgan. Ulug‘bekning faol ishtiroki tufayli, bu rasadxona o‘sha davr sharoitida mukammal astronomik asboblar va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmiy markazga aylangan.Ushbu ilmiy muassasa, nafaqat astronomiya, balki boshqa ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim platforma bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta asrlarda asbob-uskunalari jihatidan beqiyos bo‘lgan rasadxona, o‘ndan ortiq turli astronomik qurilmalar va asboblar bilan jihozlangan edi. Ularning eng muhimlaridan biri, radiusi 40,2metr bo‘lgan qo‘shaloq yoydan iborat kvadrant (sekstantga yaqin) qurilmasi hisoblanadi. Janubiy qismi yer ostida joylashgan kvadrant, shimol tomonda esa yer sathidan 30metr balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85mm va bir minut yoy 11,53mmga to‘g‘ri keladi. Ushbu asbob, astronomiyaning asosiy doimiyliklari – ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik pretsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlash imkonini berdi. Rasadxona ichida kichik o‘lchamli asboblar, jumladan armillyar sfera, o‘lchov asboblari, triangulalar, quyosh va yulduz soatlari, asturlob va boshqalar mavjud edi. Ushbu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatildi. Mirzo Ulug‘bekning eng yirik astronomik asari “Zij-i Ulug‘bek” deb nomlangan astronomik jadval yaratdi, bu jadvalda quyosh, oy va yulduzlarning harakatlari haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan. U quyoshning 1 yillik harakatini 365kun 5soat 49 daqiqa 15soniya ekanligini aniqlab chiqdi, bu esa zamonaviy hisob-kitoblarga juda yaqin. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati, mashhur olimlar G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlar bilan birga, Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan, osmon ilmida yangi cho‘qqilarga erishdi. Ulug‘bekning ilmiy merosi zamonaviy astronomiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari. bu rasadxonada o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida katta aniqlik



bilan Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar o‘rganilgan. Shuningdek, rasadxona ichida fanning deyarli barcha sohalariga tegishli qariyb o‘n besh ming jild kitob saqllovchi kutubxona ham bo‘lgan. “Risolayi Ulug‘bek” — Mirzo Ulug‘bekning yulduzlarga bag‘ishlangan muhim asaridir, bu asar astronomiya sohasidagi yirik tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Ushbu risola Ulug‘bekning zamonasi uchun eng ilg‘or astronomik bilimlarni o‘z ichiga oladi va yulduzlar harakatini o‘rganishga qaratilgan. “Risolayi Ulug‘bek”da yulduzlarning joylashuvi, harakati va astronomik kuzatishlar natijalari batafsil bayon etiladi. Ulug‘bek o‘zining rasadxonasida olib borgan kuzatishlar orqali yulduzlarning koordinatalarini aniqlashda zamonaviy usullarni qo‘llagan. Asarda yulduzlar to‘plamlari, ularning sayyoralar bilan aloqasi va bu hodisalardan kelib chiqadigan astronomik jarayonlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ulug‘bekning faol ishtiroki tufayli, bu rasadxona o‘sha davr sharoitida mukammal astronomik asboblar va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmiy markazga aylangan. Ushbu ilmiy muassasa, nafaqat astronomiya, balki boshqa ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim platforma bo‘lib xizmat qilgan.

Mirzo Ulug‘bek nafaqat osmon ilmida ,balki matekamatika rizvoji uchun ham ulkan sa’y-harakatllar qilganini tarix zarvaraqlarida payqashimiz mumkun, buning isboti sifatida, Mirzo Ulug‘bekning “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola” asari, o‘z zamonining eng muhim matematik tadqiqotlaridan biridir. Bu risola, sinus funksiyasining bir darajaga nisbatan qiymatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, matematik analiz va trigonometriya sohalarida muhim o‘rin egallaydi. “Tarixi Arba’ Ulus” (To‘rt Ulus Tarixi) – bu asar Mirzo Ulug‘bek va uning davrida yashagan olimlar tomonidan yozilgan tarixiy manbadir. Ushbu kitob, O‘rta Osiyo, Xitoy, Eron va Turkistondagi davlatlarning tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan. “Tarixi Arba’ Ulus” asarida, O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi, ularning urf-odatlari, madaniyati, iqtisodiy hayoti va siyosiy rivojlanishi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Kitobda, shuningdek, Amir Temur va uning avlodlari, shuningdek, uluslarning o‘zaro munosabatlari va urushlari haqida ham ko‘plab tafsilotlar mavjud. Ushbu kitob, nafaqat tarixiy ma’lumotlarni taqdim etadi, balki xalqlar o‘rtasidagi aloqalar va madaniy o‘zaro ta’sirni ham yoritadi. Mirzo Ulug‘bekning bu asari, tarixiy



tadqiqotlarda, shuningdek, o'sha davr madaniyati va siyosiy tuzilmalarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Insoniyat atamasi shaklangandan boshlab to hozirgacha bo'lган tarix qanchadan-qancha ziddiyatlar va qonli urushlarning guvohi bo'lindi ekan. Afsuski Ulug'bek Mirzoning hayotining so'ngi yillari tarixda qon bilan bitildi. Otasi Shohruh Mirzoning 1447-yil 28-yanvarda tasodifiy vafoti shahzodalar o'rtasida sulola jangini keltirib chiqaradi. Bir tarafda Boysunqurning o'g'li Olovuddovla, boshqa tomonda esa Ulug'bek Mirzo otasidan qolgan taxt uchun kurash olib boradi va Movvorounnahrni bobosi davridagidek gullab yashnatishni xohlaydi. Tarixchi olim Nizomiddin Gulboyevning ma'lumotlariga ko'ra- bu jarayonda Mirzoning kata o'g'li Abdulatif va uning qo'shini Olovuddovla tomonidan asirga olinadi, o'g'lini qutqarish ilinjida Ulug'bek sulh tuzishga va mamlakatni yarmini Olovuddavлага berishga rozi bo'ladi. Mirzo Ulug'bekning qo'lidagi kuch qudratni inobatga olsak, Mirzo isyonchilarni bemalol tinchita olardi amma bunday yo'l tutmadi. Vaholanki, qiziqqonligi va o'ch olish maqsadida Abdulatif Balx ya'ni Olovuddovla tasarruzidagi yerlarga qo'shin tortadi va jang Olovuddavlarning mag'lubiyati bilan yakun topadi. Garchi yurushlar davomida Abdulatif ulkan jonbozlik ko'rsatgan bo'lsada, barcha maqtov va yorliqlar Mirzo Ulug'bekning kichkina o'g'li Abdulazizga yo'naltiriladi. An'analarga ko'ra katta o'g'il taxt merosi hisoblanadi amma o'ziga nisbatan ko'rsatilayotgan kamsitishlarni Abdullatifga yomon ta'sir qiladi va taxt talvasasi uning vujudini qamrab oladi, natijada otasiga qarshi qilich yalang'ochlaydi. Navbatdagi qarama-qarshilik, afsuski, Mirzo Ulug'bekning mag'lubiyati bilan yakunlandi.

Tarixda sodir bo'lган mudhish voqealarga qaramasdan, mutafakkir Mirzo Ulug'bek o'zining kashfiyotlari bilan tarixda o'zidan yaxshi nom qoldirishni uddaladi. Shuning uchun ham 1908-1909-yillarda V.L.Vyatkin Ulug'bek rasadxonasini o'rganib, Samarqand olimlariga qiziqishni oshirdi. 1918-yilda V.V.Bartold "Ulug'bek va uning davri" asarini nashr etdi. Sovet davrida T.N.Qori Niyoziy Ulug'bekni tanitishda o'z hissasini qo'shdi. A.Ahmedov 1994-yilda Ulug'bek "Zij"ining ilmiy izohli tarjimasini taqdim etdi. 1994-yil aprelida Ulug'bek



tavalludining 600 yilligi nishonlandi, shuningdek, Toshkent shahrida haykal o‘rnatildi va Samarqandda memorial muzey tashkil etildi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, maqola Ulug‘bekning hayoti, ilmiy faoliyati va tarixiy ahamiyati haqida. Ulug‘bek, O‘zbekistonning hozirgi Samarqand shahrida yashagan buyuk astronom, olim va pdshoh bo‘lib, u 15-asrda ilm-fan va madaniyat sohasida katta yutuqlarga erishgan.

Ulug‘bekning astronomik observatoriya yaratishi, osmon jismlarini kuzatishdagi innovatsiyalari va astronomik jadval yaratishdagi o‘ziga xos yondashuvit a‘kidlangan. U, shuningdek, matematikaga bo‘lgan qiziqishi bilan ham tanilgan. Ulug‘bekning ilmiy merosi nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolada shuningdek, uning davlat arbobi sifatidagi roli va madaniyat rivojiga qo‘sghan hissasi haqida ham so‘z boradi. Ulug‘bek, o‘z davrida ilm-fan va san‘atni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratgan, bu esa uning tarixdagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, Mirzo Ulug‘bek haqidagi maqola uning hayoti va faoliyatining ko‘p qirralilagini ko‘rsatadi, shuningdek, uning ilm-fan va madaniyat tarixidagi ahamiyatini yoritadi.

FOYDALANILGAN MA’LUMOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyevning virtual axborot markazining rasmiy manzili <https://president.uz>
2. I.A.Xamraev ninng “Temuriylar davri va Mirzo Ulug‘bek” Toshkent – 2023
3. Online media ma’lumot https://youtu.be/Os-LtaujEX4?si=GaulvxDDP51fY_Pm